

Yoshlar o'rtaida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib etish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish zarur.
Shavkat MIRZIYOYEV

IJODIY PARVOZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

№ 6 (86),
2020-yil iyun

30-iyun – Yoshlar kuni!



TAVALLO

Muhammad YUSUF,
O'zbekiston Xalq shoiri

Oq yo'rgakka o'ragansan o'zing bizni,
Ham oq yuvib-taragansan o'zing bizni.
Beshigimiz uzra bedor ona bo'lib,
Kunimizga yaragansan o'zing bizni.
Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!..

Qalqoning bor, kim qasd qilsa gar joningga,
Alpomishlar ruhi yor har o'g'loningga.
Asragaymiz giyohing ham gulday o'pib,
Yovlar yaqin yo'lmagay qo'rg'oningga.
Adoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston.

Tuzing totib, unutganlar xor bo'ladi,
Ko'zlariga ikki dunyo tor bo'ladi.
Shodon daming ko'rolmagan yurtfurushlar
Bir kun bir kaft qumlog'ingga zor bo'ladi.
Yoningda turgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!..

Gul ko'ringan dashtingdagi giyoh-xasdir,
Soddadil-u ulug'vorlik senga xosdir.
Sevamizki, cho'llaring ham bizga jannat,
Tuprog'ing ham Makka misol muqaddasdir.
Onadek ko'rgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!



ADIBLAR HIYOBONI – MA’NAVIYAT MAYDONI

Mamlakatimizda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev tomonidan ko’tarilgan Besh muhim tashabbus asosida yoshlarni ma’naviy-axloqiy, jismoniy barkamol etib tarbiyalash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish, yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida olib borilgan islohotlar natijasida yoshlar o’rtasida xalqimiz ma’naviyati, milliy qadriyatlarini targ’iboti uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash”ning

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада рivojlanтириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда] ustuvor vazifalari belgilanib, bu borada “ommaviy madaniyat”ning turlariga qarshi kurashish mexanizmlarini rivojlantirish, yoshlarni o’z milliy adabiyoti, madaniyat, san’ati negizida tarbiyalash jarayonini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon artpedagogik tizimlari shaxsni rivojlantirishga qaratilgan texnologik jarayonlar, ijtimoiy-madaniy faoliyat kategoriyalari integratsiyalashuvi asosida muntazam takomillashtirib borilmoqda. Bu esa shaxsni ma’naviy jihatdan tarbiyalash, mafkuraviy sog’lomlashtirish, madaniy turmush tarzini muqobillashtirishga xizmat qilmoqda.

Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasi yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalardan bahramand etish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro’yoga chiqarish borasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirildi.

Dunyoda har bir mamlakat yoki shaharlarida turli hiyobonlar mavjud. Ularni sayr qilgan kishi o’sha mamlakat o’tmishi, mentaliteti, turmush tarzini his qilish bilan birga, ajdodlariga nisbatan istixorni ham tasvirlanganligini ko’rish mumkin. Shunday mamlakatlardan biri O’zbekiston bo’lib, aynan “Adiblar hiyoboni” esa yosh avlod uchun tarbiya maskani xisoblanadi. Ushbu maskan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 18 apreldagi “Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston milliy bog’i hududida adiblar hiyobonini barpo etish to’g’risida”gi Qarori asosida tashkil etildi. 2020 yilning 20 may kuni rasman ochildi. Prezidentimizning «Hiyobonga kirishdan boshlab, ilohiy kuch bo’lishi kerak. Bu xiyobon odamlarga ma’naviyat beradigan, ma’rifat ulashadigan joy bo’lishi kerak. Kelganlar oldin muzeysa kirib, adiblarimiz ijodi bilan tanishadi, keyin ziyorat qiladi». O’zbek adabiyotining dunyoga mashhur 24 nafar adiblari, yozuvchilar, shoirlarining haykallar o’zbek tili asoschisi Alisher Navoiy atrofida qurultoy qurdi.

Adiblar olami – adabiyot tarixi,

aslida har bir adibning o’zi alohida bir tarix va ularning majmuasi xalqimiz ruhini jamlagan bir mezon. Bu yerda ziyorat Navoyi bobodan boshlanadi. Navoiyning nuroni chehrasi uning yuksakligini bildiradi. Alisher Navoiy meros – ma’naviyatimiz asosidir. Har bir yosh Navoiy haykali oldida ham o’ziga ma’naviy ozuqa oladi. Haykal ustidagi gumbaz girdida quyidagi hikmatli baytni o’qiyimiz:

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dashmanlig’.

Yor o’lung bir-biringizga kim, erur yorlig’ish.

Ushbu baytlar orqali inson biringizga doimo do’st, inoq bo’lib yashanglar, aslo dushman ishini qilmang, shundagina baxtli hayot kechiring, degan ma’nolarni anglaydi. Hiyobonga tashrif buyurgan har bir yosh yigit-qizlar qalbida o’z ajdodlari bilan fahrlanish tuyg’usini uyg’otadi. O’tgan adiblarning ma’noli va ibratli hayotini dunyoning necha-necha mashhur olimlari tadqiq qolmoqdalar. Ularning asarlari esa har bir kashfiyotda, yangi bir kitoblarni yaralishiga muhim manba bo’lib xizmat qilmoqda. Adiblar siyratini tomosha qilgan yoshlar tarixni ham o’rganadi. Chunki adiblarning haykallari xronologik tarzda o’rnatilgan. Alisher Navoiyning aso ushlagan nuroni chehrasida o’z davrining shaklu shamoili tasvirlangan. Bu hiyobon tarix ko’zgusidir. Buni har bir adibni kiyimidan ham ko’rish mumkin.

*Navoiy haykali – purviqor, o’ktam,
Asrlar kechmishin aylarkan tahlil,*

*Anglab yetajakmiz uni, do ‘stginam:
Sabr ne, ne maqsud, ne yurtu ne dil...*

*Bunda sehrlidir so’z ila tuyg’u,
Bunda ilohiy nur, ruhlar kezadir.*

Bu bir saltanatdir – ko’hna va mangu, Bunda qalb o’zini boqiy sezadir.

Adiblar hiyobonida keyingi ziyorat davlat arbobi, shoiri va mashhur alloma Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) haykali bo’lib, uning bir qo’lda kitob, bir qo’lda qinda qilich bilan turganligini ko’rish mumkin.

Shoir Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) ning tarixiy-adabiy asarlarida hozirgi yoshlarga ibrat namunalari berilgan.

Qoraqalpoq shoiri Berdaq (Berdimurat Qarg’aboy o’g’li, 1827-1900)ning dutor chalgan holda

*Tug’ildingmi, mehnat qilgin el uchun,
Joningni ayama elda er uchun.
Kindik qoning tomgan tuqqan yer uchun,
To o’lguncha xizmat qilgin yaxshiroq,*

deb yoshlarni chorlaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan ma’rifatparvarlardan shoiri va publisist Furqat Zokirjon (1858-1909) va shoiri Muhammad Aminxo’ja Muqimiy (1850 - 1903) o’rta asr jaholatiga qarshi xalq o’rtasida ilm-maorif va madaniyatni zo’r ehtiros bilan targ’ib qilganlar. Masalan, Furqatning fikricha, ilm-fan bir mash’ala bo’lib, insoniyatning baxtsaodat yo’lini yoritib turishi kerak. Buni Furqatning quyidagi baytidan ham bilish mumkin:

*Ko’ngillarning sururi ilmdandur,
Ko’rar ko’zlarining nuri ilmdandur
Kerak har ilmdin bo’lmoq xabardor,
Bo’lar har qaysi o’z vaqtida darkor.*

Mahmudxo’ja Behbudiy (1875-1919) haykali oldida turgan kishi, xuddiki, “qo’liga aso tutib, oq yaqo kiyib, botinka, uzun shim va mo’ylab qo’yib olgan bilan kishi ilmli va madaniyatli bo’lib qolmasligi”

to’g’risida xitob qilayotgandek. Yozuvchi, ma’rifatparvar va pedagog Abdulla Avloniy (1878-1934) esa “farzandlari “haykal”dek jonsiz” bo’lmaslikni, qayta-qayta bilim olishni va “Maorifdan, funun va madaniyatdan mahrum qolgan xalq jaholat panjalarining orasida ezilur” deb ta’kidlagandek. Chunki, Abdulla Avloniyning tanqidiy fikrlarining keskinligi bilan ajralib turgan. Yangi yo’nalishdagi o’zbek she’riyatining asoschilaridan biri bo’lmish Abdulhamid CHo’pon (1897-1938) o’ng qo’lida kitob ushlab, uzoqni ko’zlab o’ychan turgan haykali kishida o’zgacha taassurot qoldiradi.

O’zbek romanchiligiga asos solgan Abdulla Qodiriy (1894-1938)ning savlatli haykali yoshlarni tinimsiz mehnat qilishiga undayotgandek gavdalanadi. Sobiq sovet yozuvchilaridan G’ofur G’ulom (1903-1966), Abdulla Qahhor (1907-1968), Said Ahmad Husanxo’jayev (1920-2007), To’lepbergen Qaipbergenov (1929-2010), Ibrohim Yusupov (1929 - 2008), Erkin Vohidov (1936-2016), Abdulla Oripov (1941-2016), hamda sovet shoiri va ssenarist, O’zbekiston Respublikasi xalq shoiri Aleksandr Faynberglarga (1939— 2009) qo’yilgan haykallarning siyratida o’tkir ilmiy-ijodiy tafakkur, vatanga bo’lgan sadoqat, har birining ertangi hayotga qat’iyatlari ishonchli nigohlari yoshlarda chuqr taassurot qoldiradi. Vafo va sadoqat malikalari adiblar – Zulfiya (1915-1996), Saida Zunnunova (1926-1977) siymolari aks etgan haykallarning har biri toshga bitilgan dostondir. Ularda buyuk ibrat va barhayot hikmatlar mujassam.

Va niyoyat Muhammad Yusuf sharafiga o’rnatilgan haykal, uning o’sha sodda, o’ychan nigohlari bilan savlat to’kib turishi tasvirlangan. Ortida o’ining sevimli qishlog’i aks etgan va yana o’z qalamiga mansub “Xalq bo’l elim” she’ri bitilgan. Marhum Muhammad Yusufning yorqin xotirasiga bag’ishlab yaratilgan ushbu yodgorlikni tomosha qilar ekansiz, shoiri shu turishida,

*Dunyoga boq qaddi sendek kim bor yana,
Dovrug’i ham dardi sendek kim bor yana.*

*Xalq bo’lishga haddi sendek kim bor yana,
Moziyini yod etay desang – Xalq bo’l elim!*

deyayotgandek tuyulishi tabiiy. Shoiri o’zbek yoshlariga “o’xshasa o’ziga o’xshaydi o’zbek, qiyosi yo’q uning mehri bir daryo, dunyoda bolam deb

yashaydi o’zbek”, - deya o’z xalqining xarakterini, ulug’ligini samimiyl satrlar bilan ifodalab, ilhim bag’ishlaydi go’yo.

“Adiblar hiyoboni”da yoshlarimiz uchun juda ko’p imkoniyatlar



mujassam. Jumladan, adiblar hayoti, faoliyati va asarlari haqida yozilgan ko’plab kitoblarni o’zida jamlagan kutubxona ham ochilgan. Shuningdek, kutubxonaning maxsus zallarida adiblarning adabiy kechalari, tavallud ayyomlariga bag’ishlangan tadbirlar, she’rxonlik, adabiy suhbatlar, ochiq darslar, yangi kitboblar taqdimoti o’tkazish mumkin. Adiblarning avlodlari, farzandlari, shogirdlari va boshqa mashhur adiblar, yozuvchilar, shoirlar ishtirokida turli tadbirlar tashkil etilsa, tadbir ishtirokchilari ma’naviy ozuqa olsalar, o’tganlarning ruhlari shod bo’lishi tayin.

Yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyev milliy adabiyot xazinasini internetda targ’ib etishni yaxshi yo’lga qo’yish maqsadida “Adiblar hiyoboni” deb nomlangan internet portalini tashkil etish bo‘yicha judayam o’rinli, go’zal fikrlarini berdilar. Saytda mumtoz va zamonaliv asarlarning elektron nusxalari, yozuvchi va adabiyotshunoslarning mahorat saboqlari jamlanishi kerak bo’ladi. Rejaga ko’ra, portal o’zbek, ingliz va rus tillarida faoliyat ko’rsatsa, undan xorijlik muxlis va mutaxassislarning ham foydalanishiga imkoniyat yaratiladi. Insoniyat yaralibdiki, adabiyot, she’riyat, san’at va ma’naviyat odamzod hayoti va uning taraqqiyoti bilan chambarchas bog’liq bo’lib kelmoqda. Bularning bari odamzodning dunyoqarashiga ularning ichki tarbiyalanishiga, aql idrokinining rivojiga yordam beradi. San’at asarlari bilan tanishish, bu odamzodning ruhiyatini, ma’naviy boyitadi, unga ijobjiy ta’sir qiladi. Badiiy dunyoqarash bu odamzodda san’atga nisbatan go’zal tuyg’ularni paydo qiladi. Odamzod intiladi, ijod qiladi va san’at, adabiyot orqali o’zlashtirgan fikr g’oya qarashlarini o’zining hayotida qo’llaydi. Shunday ekan, Adiblar xiyoboni nafaqat yoshlarimiz, balki har bir insonning xulqini, strategiyasini boyitishga xizmat qiladi.

“Adiblar hiyoboni” – ma’naviyat va ma’rifat maydoni sifatida yoshlarda chuqr taassurotlar qoldirishi, tabiiy. Bu hiyobondagi adiblar siymolari O’zbekistonda kimiki mehnat qilsa uning nomi aslo unutilmasligini yorqin dalili sifatida namoyon bo’ladi. Har bir yosh hiyobonga o’z tengqurlari, oila a’zolari, yaqin kishilari bilan birligida kelib, maroq bilan dam olishi, olalom taassurotlar, adabiy – ma’naviy ozuqa olib qaytishiga ishonaman.

**Musallam ABDUJABBAROVA,
O’zDSMI, Pedagogika fanlari
nomzodi, dotsent**

Menden nima qolar ikki misra she'r; ikki sandiq kitob-u, bir siqim tuproq!


O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tomonidan bitilgan ushbu satrlar oradan necha yillar o'tibdiki, hamon kishilar quloqlari ostida jaranglab turibdi. Bu misralar qalbimizdan joy olgan, ular inson hayotining o'tkinchligi, umrimiz davomida qilgan ezgu amallarimiz ortimizda qolishini anglatadi.

Qisqa vaqt ichida an'anaga aylanib ulgurgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamoasining bu galgi "Adiblar xiyyoboni"ga tashrifi o'ziga xosligi bilan ajralib turdi. Muhammad Yusuf ijodiga, ayniqsa she'riyatiga oshufta ko'ngillar - O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zolari, poytaxtimizdag'i boshqa oliv o'quv yurtlari professor-o'qituvchilar, talabalar ham shoir haykali oldida jam bo'lgan

SHE'RIYAT ANJUMANI

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti doktorantlarining ijodiy muloqotlaridan bahrmand bo'lishdi. Uchrashuvda shoir hayoti, uning ona Vatanni madh etuvchi she'rlaridan namunalar aytildi. Shoir ijodining o'ziga xos jihatlari zamondoshlari tomonidan e'tirof etildi. Muhammad Yusuf bilan bog'liq yorqin xotiralar yana bir bora yodga olindi. Bu yerda jam bo'lgan oliv o'quv yurtlari professor-o'qituvchilar bilan Muhammad Yusufning hayoti, uning ijodiga doir maqolalar, ilmiy ishlarni jurnallarda hamkorlikda chop etish bo'yicha fikrlar bildirildi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Ilmiy-ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Go'zal Xalikulova boshchiligidagi mushoira



va davra suhbatlari bo'lib o'tdi. Yorqin lahzalar betakror sher'iyat anjumaniga aylanib ketdi.

*Mening shodligimsan, bolaligimsan,
Mening g'ussam o'zing, mening armonim.*

*Seni osmonlarga olib ketaman,
Yerda bizga kun yo'q,
kun yo'qdir jonim.*

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning muhabbatni tarannum etuvchi she'rlari ham aytildi. Davraga yig'ilgan barcha mehmonlar qalblarida iliq tuyg'ular va xotiralar bilan qaytishdi. Shoir ijodi qalbimizda mangu yashaydi.

**Gavhar NAZAROVA,
Dostonbek RAHMATULLAYEV
O'zDSMI doktorantlari**

"USTOZ SHOGIRD" AN'ANASI

Men Saydaxmedova Dilafroz 2018-yil O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Xalq ijodiyoti" fakulteti "Folklor va etnografiya" bo'limiga Grand asosida o'qishga qabul qilindim. Hozirda 2-bosqichda tahsil olyapman. Bizning yo'nalishimizda asosan qo'shiqchilik, cholg'u ijrochilik, raqs va folklor va etnografiya nazariyasi o'rgatiladi. Men mutaxassislik fanlarimizdan kelib chiqib "Ustoz shogird" an'anasi to'g'risida bizning kafedra timsolida maqolamni sizlarning e'tiboringizga havola etmoqchiman.

Amaliy tomonidan yozsam: 1-bosqichda tahsil olganimda men O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Rustam Abdullayev ustozdan yakkaxon qo'shiqchilik "Buxoro hududi yo'nalishi" bo'yicha bilimlar oldim. Ustoz menga Buxoro hududiga xos tojikcha qo'shiqlar o'rgatdi. Shu jumladan "Mavrigi" ni ham. 2 bosqichda ya'ni hozirda "Qoraqalpoq hududi yo'nalishi" Qudeybergenova Bibiaysha ustozda yakkaxon qo'shiqchilik bo'yicha tahsil olmoqdaman. Qoraqalpoq tilida qo'shiq kuylash qiyinroq. Sababi Qoraqalpoq shevasida bizning alifbomizda yo'q harflarda "ы" shu harflarda qo'shiqlar kuylanadi. Qoraqalpoqda qo'shiqchilik asosan vokalga moslangan. Qoringa (diagfragma) ganafas olish, og'izni to'g'ri ochish, so'zlarni aniq tomoshabinga yetkazib beraolish, nolalarini to'ndan chiqmay kuylash, qolaversa Qoraqalpoq shevasida qo'shiqni me'yorida kuylash kerak. Yilning boshida Qoraqalpoq tili menga bir oz qiyindek tuyildi, hozir ancha o'rganib oldim. Shunga qaramay harakat qilyapman ustozdan bilmaganlarimni yanada ko'proq o'rganishga. Kuni kecha 4-fevralda Qoraqalpoq hududi yo'nalishi bo'yicha sind konsertini taqdim etdik. Konsert Oliy dargohimizning O'quv teatri binosida bo'ldi. Konsert mehmoni Qudeybergenova Bibiaysha ustozning shogirdi O'zbekiston va Qoraqalpog'istonida xizmat ko'rsatgan artist Jinisbek Piyazov bo'ldi. Konsertda Qoraqalpoq xalq qo'shiqlaridan

Bardur, Gulshirayli, Qizminayim 1-2 qo'shiqlarini jonli ijroda kuyladik. Konsertga O'zbekiston24 telekanali kelib bizning konsertimiz haqida reportaj tayyorladi. Konsert juda ham fayzli hamda a'lo kayfiyatda o'tdi. Yana bizga "Folklor asarlarini sahnalashtirish" fani ham qo'yilgan.

Classica hamda Jahon raqsi yo'nalishida qo'l oyoq harakatlarini o'rgatib kelyaptilar. Bizning kafedra faqatgina bu fanlar bilan cheklanib qolmay, biz talabalarga 2-bosqichdan Sahna nutqi fani qo'yildi. Sahna nutqi fanida – nutq texnikasi, artikulatsiya, diksiya, nafas va ovoz ustida ishslash bo'yicha kompleks



Bu fandan Kamoliddin Isayev ustoz bilim beradilar. Bu fanda biz talabalar hayotimizda yo'qolib ketayotgan marosimlarni topib senariylashtirib sahnaga olib chiqamiz. Bu yil 1 sessiya yakuniy nazorat ishimizga "Chimildiq" spektaklini ishladi. "Chimildiq" spektaklda biz folklor va etnografiyaga hos marosim udumlarni o'chib berishga harakat qildik. Spektakl utozlarimiz va institutimizga kelgan malaka oshiruvchi ustozlar tomonidan yaxshi kutib olinib bizga ijobjiy fikrlar bildirishdi. Bizda cholg'u ijrochilik fani ham bor. Cholg'u ijrochilik fanida Zafar Xayitov Baxshi ustoz menga dutor bo'yicha bilimlar beradilar. Dutor haqida ozgina ma'lumot yozsam, dutor eng qadimi chog'ulardan hisoblanadi. Dutor forscha so'z bo'lib "ikkita tor" degan ma'noni anglatadi. Raqs fanimiz ham juda zo'r. Bu fandan Zokirova Saida ustoz 1-bosqichdan to shu vaqtgacha Toshkent Farg'onai, Buxoro Samarqand, Xorazm, Qoraqalpoq hududlari bo'yicha va

mashqlar, jumladan, manzaraviy parchalar, tez aytish, maqol va matallar orqali nutqiy ohangdorlikka erishish, monolog, dialoglar, she'r, masal, ruboiy va g'azallar ustida ishslash natijasida nutqda ifodaviylikka erishish usullari o'rgatiladi. Bu fanning ham o'ziga yarasha qiyinchiliklari bor. Ushbu fandan Shomurodov Avazbek ustoz bizga o'z bilimlarini beryaptilar. Sahna nutqi fanida biz rezanator, artikulyatsa, nafas olish, unli tovushlar (I, E, A, O, O', U) va undosh tovushlarni talaffuz qilish, tez aytish mashqlarini, hamda she'r va dostonlardan saj aytishni o'rgandik.

Nazariy tomonidan yozsam: 1-bosqichdan boshlab Folklorshunoslikka kirish fanini o'tdik. Bu fandan Jabbor Eshonqulov ustoz folklor barcha san'atning boshlanishi sarchashmasi, shu sababli ham boshqa ko'pgina san'atlar bilan uyg'unlikka ega. Bu soha o'z ichiga musiqa, raqs, hunarmandchilik, tasviriy, badiiy va boshqa san'atlar bilan bog'liq tasavvurlarni qamrab oladi.

Og'zaki ijod xalqining o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida ifoda etuvchi, uning taqdiri bilan chambarchas bog'liq ijodiy jarayondir. Folklor san'ati an'analari xalqning turmush tarzi, hayoti, dunyo qarashi, ruhiy – ma'naviy va ichki kechinmalarini yuksak badiiy ifoda ettirgan qadriyatdir deb aytgan edilar. Folklor atamasini 1846-yilda ingлиз olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib, u "Xalq donoligi" degan tushunchani ifodalaydi. Folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari – me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari tushuniladi. Folklorshunoslikka kirish fanida biz folkloering o'ziga xos xususiyatlari, folkloering o'rganilish tarixi, folklorshunoslik maktablari va metodalari, folkloering tur va janrlarga bo'linishi, folkorda motiv syujeti, folklore asarlari strukturasini o'rgandik. 2-bosqichdan esa O'zbek xalq etnalogiyasi fanini Ashirov Adhamjon ustozdan o'rganyapmiz. Etnalogiya so'zi yununoncha so'z bo'lib, etnos (xalq) va logos (fan) "Xalq to'g'risi" dagi fan degan ma'noni anglatadi. Etnalogiya fanida Xalq turmush yashash tarzi ya'ni o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, etnalogiya yo'nalishi va maktablari, an'anviy xo'jalik mashg'ulotlari, o'zbek xalqining an'anaviy marosimlarini o'rganyapmiz.

Biz bilamizki, inson tug'ilganidan to o'limigacha bo'lgan davrda har xil urfatotlarni va an'anaviy marosimlarni boshidan o'tkazadi. Bunday marosimlarsiz inson hayotini, turmush tarzini tasavvur etish qiyin, albatta. Shunday ekan inson hayotining asosiy qismimi folklor va etnografiya tashkil etidi deya hulosa qilaolamz.

**Dilafruz SAYDAXMEDOVA,
"Xalq ijodiyoti" fakulteti "Folklor va etnografiya" bo'limi 2-bosqich talabasi**

ROL

Rejisser buyurdi: endi men – shayton... Yo‘q, yo‘q farishtaman, hali farishta. Olloh pokligimga hilgan yo‘q gumon, Xizmatim – beminnat, ishim – sarishta.

Qodir dargahida qobil xizmatkor, Yer-ko‘k orasida halol yugurdak, Muloyim, ko‘ngilchan, ajbir, shiddatkor – Burchimni o‘tadim yugur – yugurlab.

Amr etdi – lahzada bajardim... – Qoyil!

Barakallo!– Tangri yelkamga qoqdi. Hattoki mehnatkash, kamgap Azroil Yumushidan to‘xtab, jilmayib boqdidi.

Ammo (o, "ammo")lar bariga sabab... Qalbimda uyg‘ondi isyonkor shubha – Nimalar qilyapsan dunyoni so‘rab, Yetti qavat ko‘kda yastangan sho‘ba?

Oollohga tik boqib savollar berdim, Tillari tutildi parvardigorning. Nechun suyganlarining baxtsir, erkin? Nechun kuyganlarining tuproqdan xordir?

Qismati azalmi manglayga yozib, O‘zing yana nechun qilsan so‘roq?.. Savol beraverdim aqlidan ozib, Fahmimcha, biridan biri yaxshiroq.

Bunday osiylikni ko‘rmagan osmon! Xudovand o‘rnida turib ketdi dast: – Buni la’natlanglar! Bu – shayton! Shayton! ...Shu tarzda shaytonga aylandim, xullas.

Yomon aktyormasman... Zalga kirgin-da, Shayton qiyofali o‘yinimi ko‘r! Hayqirib qolaman tamoshabinga: – Qani, o‘zi chiqsin, tangring bo‘lsa zo‘r!

Siz sig‘ingan xudo chiqmaydi – ko‘rqaq! U butun olamga yitiq soyabon. Haqiqat bor joyga qo‘ylmas oyoq, Faqat ming‘illaydi: – Gunohkor – shayton!

Zal bo‘shab qoladi... Rejissyor jo‘nar, Minnatdor muallif ziyoftiga. Men-chi, bir sha’n baxtga bo‘lgum tuyassar Chiqolmay shaytonning qiyofasidan.

Erta rejisserning olayar ko‘zi: – Xizmat ko‘rsatganining hammasi yolg‘on! – Achchiq haqiqatni aytaman cho‘zib, Shundoq boshim uzra aylanar to‘fon.

Farishta aktyorlar qotishadi dong, Kamonday tortilar direktor qoshi. O‘sim qo‘rqib ketib kulaman: – Shayton! Sahna bilan hayot ketdi adashib...

So‘nar qalbimdagagi rostgo‘y talvassa, Qalbni sher tark etib, qaytadi quyon. ... Xudolar shaytonni so‘ka boshlasa, O‘ylanib qolaman o‘shandan buyon.

Sen ham o‘yga tolding. Sen – aqllisan. Hech qachon qilmaysan tavakkal isyon. Shaytonlar xudomi? – aniq bilmaysan, Ammo senga ayon: Xudolar – shayton...

**Usmon AZIM,
O‘zbekiston Xalq shoiri**

KITOB MUTOLAASINI SHAKLLANTIRISHDA KUTUBXONACHILIK FAOLIYATI

Kitoblar barcha zamonlar uchun eng zarur narsa, qalblar malhami, bilimlar xazinasi, donishmandlik chashmasi bo‘lgan va bo‘lib qolaveradi. Kitob insoniyat va jamiyat madaniyatining ajralmas bir qismi bo‘lib, insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida kishilarni tarbiyalash, ularning aqliy rivojlanish vositasi bo‘lib keldi. Kitob barcha sohaga oid ma‘lumotlarni to‘plash, saqlash usuli sifatida katta ahamiyatga egadir. Inson tafakkurining rivojlanishi kitob va yozuv doimo hamroh bo‘lgan. Ba‘zi madaniyat va ma‘rifat shakllari og‘zaki aloqa munosabatlariga asoslangan bo‘lsada, yozuv paydo bo‘lgandan so‘nggina hozirgi kungacha yetib keldi va voqelikka aylandi. Insoniyat yaratgan muomala vositalari ichida eng ishonchilisi, eng qulayi kitobdir. Kitob kishilarga insoniyat erishgan yutuqlarni bilish imkonini beradi, xalqlar o‘rtasidagi munosabatni, hamjihatlikni, o‘zaro mehr-oqibatni tiklaydi. Kitoblar tufayli qadim davrlardagi kutubxonalar, ularning tizimi, kutubxona xizmat ko‘rsatishi haqidagi ma‘lumotlarni bilish bilan birga o‘sha davr kishilarining qiziqishlari, intilishlari, hayot darajasi haqida ma‘lumotga ega bo‘lamiz. Eramizdan avvalgi asrlarda kutubxonalarining sopol taxtachalarda bitilgan qo‘lyozma boyliklari Ossuriya-Bobil madaniyatini tushunishga yo‘l ochib berdi. Boshqa topilmalar kabi Mesopotamianing qadimgi madaniyati tarixini, uning yozuvni, saroy, cherkov va boshqa kutubxonalarini sirlarini ochishga yordam qildi. Ular sababli bizgacha yetib kelgan juda ko‘p turk, fors, arab tillaridagi qo‘lyozma kitoblar, tarixiy shaxslar haqidagi adabiy manbalar jonli guvohligida O‘rta Osiyoning qadimgi sulolaviy kitob fondlari, masjid va madrasalarining kutubxonalarini, shaxsiy kitob to‘plamlari bo‘lganligidan xabardor bo‘lamiz. Kitoblar tarixning asosli guvohlaridir. Ulardagi ma‘lumotlar yaxshimi yoki yomonmi farqi yo‘q, ular asl guvohlardir.

Bugun butun dunyoda internet atalmish elektron ma‘lumot tarqatuvchi vosita mayjud, lekin bir kun elektr toki bo‘lmasa, yana kitob qidiramiz. Biz kitobdan voz kecha olmaymiz va voz kechmagannim ham. Bugungi kunda ham kitoblarga bo‘lgan talab tobora ortmoqda. Olimlarning ta‘kidlashicha internetda uyali aloqa vositasida kitob o‘qishlik ko‘z uchun qanchalik zarar bo‘lsa, insonning bosh miyyasiga ham shunchalik zarar berar ekan. Kompyuter orqali elektron kitob o‘qilsa, uyali aloqa vositasidan ko‘ra 7-8 barobarida zararli ekan. Lekin kitob ma‘lumot ulashishi bilan bir qatorda inson miyyasining qon aylanish tizimi uchun ham foydali ekanini aytib o‘tishgan.

Shotlandiyalik olimlarning tadqiqotlariga qaraganda, kitob o‘qish tushkunlikni davolashning eng samarali vositasidir. Tushkunlikka chalingan bemorlar kitob o‘qishni boshlaganlaridan so‘ng ularning tushkunlikka tushish holatlari kamaygan.

San‘at milliy jamg‘armasi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar kitob o‘qiydigan insonlar madaniy va ijtimoiy hayotda ham faol bo‘lishlarini isbotladi.

Kutubxonachilik ishi hech qachon makondan va zamondan tashqarida

mustaqil rivojlana olmaydi, jamiyat taraqqiyotining umumiyligi qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Kutubxonalar ijtimoiy hodisa sifatida o‘zi ishlab turgan ijtimoiy muhit doirasiga bog‘liq ravishda shakllanishi buyuk haqiqatdir. Jamiyat kutubxonanining vasiysi bo‘lgani uchun ham kutubxonalar jamiyat oldida o‘z faoliyatiga javobgardir va uning ehtiyojiga javob berishi shart.

1892–1972-yillarda yashab ijod etgan hindistonlik kutubxonashunos olim SH.R.Ranganatanning kutubxonachilik ishining besh qoidasi hozirgi davrda ham o‘zahamiyatini yo‘qotmagan. Bular:

- kitoblar o‘qish uchun xizmat qiladi;
- har bir kitobning o‘z kitobxoni bo‘lsin;
- har bir kitobxonning o‘z kitobi bo‘lsin;
- kitobxonlar vaqtini asra;
- kutubxona o‘sayotgan organizmdir.

Bunday fikrlar juda ko‘p va ulardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kitob ma‘naviy kamolotning mahsulidir.

O‘zbekistonda “Kutubxonashunoslik” fanining rivojlanishi uchun bugun juda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda “Kutubxonashunoslik” fanining rivojlanish bosqichlari uch davrga bo‘lib ko‘rsatilgan. Agar shunga amal qiladigan bo‘lsak, hozirgi kunda bu davrlar to‘rtta bo‘ladi:

- 1918–1945-yillard;
- 1946–1974-yillard;
- 1975–1990-yillard;
- 1991-yildan keyingi davr.

Bunday bo‘linishlar kutubxonachilik ishidagi rivojlanish xususiyatlari va sohaga oid amalga oshirilgan ilmiy-amaliy ishlar ko‘lamiga bog‘liq. Shu davrda sohaga oid birinchi marta qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2006-yil 20-iyunda qabul qilingan Birinchi Prezidentimizning “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta‘minlashni tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2011-yil 23-fevraldagi “2011–2015 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida axborot-kutubxona va axborot-resurs xizmatini yanada sifatli takomillashtirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2012-yil 20-martda qabul qilgan “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi axborot-resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorning o‘ziyoq bu davrning o‘ziga xos xususiyatlarini va ahamiyatini ko‘rsatgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi «Kitob maxsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlanish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha komisiya tuzish to‘g‘risida”gi PF-4789 sonli farmoishi, 2017 yil 13 sentabrda esa mazkur xujjatdagi topshiriq va vazifalar ijrosiga qaratilgan PF-3271- sonli

“Kitob maxsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlanish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. 2019 yil 19 mart kuni ilgari surilgan ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muxim tashabbusning to‘rtinchisi yoshlar ma‘naviyatining yuksaltirish, ular

o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil qilishga yo‘naltilrilganligi, joriy yil 7 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ – 4354-sonli qarori Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohanasi isloh qilishning, axborot-kutubxona faoliyatini rivojlanishning maqsad va vazifalari xalqaro amaliyatga mos bo‘lishi zarurligi, milliy qadryatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo‘lishini ta‘minlash aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatishning sifat jihatidan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etish, takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Mazkur qarorga muvofiq kutubxona sohasida mutaxasislarga bo‘lgan ehtiyojni o‘rganish asosida “Kutubxona-axborot faoliyati” yo‘nanishi bo‘yicha va O‘zbekistonda kutubxonashunoslik fanining rivojlanishi bugun juda odimlanib kelmoqda.

Biz bo‘lajak kutubxonachi kadrlarni tarbiyalovchi pedagog sifatida ko‘plab jihatlarga ahamiyat berishimiz lozim. Deylik, bo‘lajak kutubxonachi kitobxonga beradigan doimiy savollar to‘plami bo‘lishi lozim. Masalan:

- Hurmatli kitobxon, siz kitobni qanday maqsadda, ya‘ni mutoalaa uchunmi yoki ma‘lumot olish maqsadida olmoqchisiz?

- Siz kitobxon sifatida qanday kitob mutoalaa qilishni xohlaysiz?

- Sizni qanday janrdagi kitoblar qiziqtiradi?

- Sizni bugungi kun kitoblari qoniqtiradimi?

- Kitobxon sifatida kutubxonachidan mutoalaa uchun kitoblar tavsiyasini xohlaysizmi?

- Siz shu paytgacha (yil mobaynida, oy davomida) nechta kitob (qanday janrdagi) o‘qigansiz?

Yosh kutubxonachilarga har doim kitoblar tartibi, ularning janri, yo‘nalishi va millat turlariga qarab farqlanishini va joylashuvini o‘rgatish lozim. Hozirgi kunda kutubxonachilik yo‘nalishida kitoblar joylashuviga alfavit katalogi, sistemali katolog, predmet katalog shakli keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, bugun mamlakatimiz kutubxonalarida xususiy elektron resurslar yaratish ishlari, yig‘ma elektron katalog yaratila boshlandi. Elektron katalog-elektron kutubxonaning asosiy elementi hisoblanadi. Elektron kutubxona fondi elektron shakldagi resurslardan iborat bo‘lganligi sababli, elektron resurslar tavsifini tuzishga mo‘ljallangan. Ma‘lumki, an‘anaviy kutubxona kataloglari kutubxona fondidan alohida joyda saqlanadi va katalog kitoblar fondni kitobxonga ochib berishga xizmat qiladi. Kitobxon katalogdan foydalanishi uchun kutubxonaga borishi kerak. Elektron kutubxona elektron katalogning har bir elektron kartochkasi elektron kutubxonadagi har bir hujatga bog‘langan bo‘ladi va undan masofadan turib foydalanish mumkin.

**Sohibaxon YO‘LDOSHEVA,
Ikromjon HABIBJONOV,
O‘zDSMIFMF o‘qituvchilarini.**

Muassis:
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti

Bosh muharrir:

Tahrir hay‘ati:
Go‘zel XOLIQULOVA
Ma‘rufon YULDASHEV
O‘tkur ISLAMOV
Antonino KOSHELEVA
Rashid USNATOV
Jumugul NISHONOVA
Mas‘ul kotib:
Alimurod TOJIYEV
Nafisa RAIMQULOVA

Tahririyat manzili: 100025 Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (0-371) 230-28-13.
www.dsni.uz; nashriyot@dsni.uz

Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O‘rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash‘al mahallasi, Markaz – 1.

Sahifalovchi:
Shahriyor IBRAGIMOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo‘limida tayyorlandi.
O‘lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq.

Nusxasi – 500 dona. Narxi kelishilgan narxda.

Chop etishiga 30.03.2020 yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro‘yxatga olingan.